ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 159.922.7: 159.942.5
ORCID: 0000-0002-2023-335X
NARBASHEVA MEXRI ACHILOVNA
TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi professori,
E-mail: narbasheva@terdpi.uz
TO'XTASHEVA RAYHONA ALLAMURAT QIZI
TerDPI 70310301-Psixologiya mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

TALABA YOSHLARNI "OTALIK VA ONALIKKA" TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada talaba yoshlarni otalik va onalikka tayyorlashning psixologik-pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional yetuklik, empatiya, mas'uliyat hissi va shaxsiy qadriyatlar tizimi ota-onalikka tayyorgarlikning muhim omillari sifatida yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni oilaviy hayotga ongli ravishda tayyorlash zarurligi asoslab berilgan. Maqola natijalari yoshlarning oilaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
KALIT SO'ZLAR: *talaba yoshlar, otalik va onalikka tayyorgarlik, psixologik-pedagogik mexanizmlar, emotsional yetuklik, empatiya, mas'uliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К «ОТЦОВСТВУ И МАТЕРИНСТВУ»

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются психолого-педагогические механизмы подготовки студенческой молодежи к отцовству и материнству. Рассматриваются эмоциональная зрелость, эмпатия, ответственность и система ценностей как основные компоненты готовности к родительству. Обосновывается необходимость целенаправленной подготовки студентов к семейной жизни в высших учебных заведениях. Результаты исследования могут быть использованы в психолого-педагогической практике.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *студенты, готовность к родительству, психолого-педагогические механизмы, эмоциональная зрелость, эмпатия, ответственность.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF PREPARING STUDENTS FOR «FATHERHOOD AND MOTHERHOOD»

ABSTRACT: The article examines psychological and pedagogical mechanisms of preparing university students for fatherhood and motherhood. Emotional maturity, empathy, responsibility, and value systems are identified as key components of readiness for parenthood. The study emphasizes the importance of systematic preparation for family life within higher education. The findings may be applied in psychological and educational practice.
KEYWORDS: *university students, readiness for parenthood, psychological and pedagogical mechanisms, emotional maturity, empathy, responsibility.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan sharoitda jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi – bu mustahkam va sog‘lom oiladir. Kelajakda sog‘lom avlodni voyaga yetkazish uchun esa yoshlarning “otalik va onalikka” tayyorgarligi muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tasodifiy jarayon bo‘lmay, balki maxsus tashkil etilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. Yoshlarni otalik va onalikka tayyorlash jarayoni tasodifiy emas balki ongli ravishda shakllantiriladigan maxsus pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsning emotsional intellekti, muloqot ko‘nikmasi, mas’uliyat hissi va oilaviy qadriyatlari ham shakllanishi zarur. Chunki kelajak avlodning tarbiyasi bevosita yoshlarning ota-onalikka tayyorgarligiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbek oilalarida nikohning o‘ziga xos talablari hamda ajralish va tushunmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini N.A.Sog‘inov, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida nizolarning yuzaga kelish sabablarining psixologik, iqlimiy va milliy xususiyatlarini X.K.Karimovlar o‘rganishgan[2]. V.M.Karimova esa o‘zbek oilasi to‘g‘rsidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo‘lishini amaliy jihatdan o‘rganib kelgan.

G‘.B.Shoumarov oila munosabatlarida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zbek oilalarining o‘ziga xos jihatlari, er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sabablari va uni hal etish yo‘llari, o‘smir-yoshlarni oilaga tayyorlashning psixologik muhit, qaynona-kelin, qaynona-kuyov o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va ularning oldini olish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi [3].

Rus psixologlaridan N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarining tenglashtirilishidandir, deb tushuntiradi [4].

E.Eydemiller va V.Yustiskislar talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixoterapiyadan foydalanish ularning oilaviy munosabatlarni barqarorligi zamin bo‘luvchi qiziqishlari va ma’naviy qadriyatlariga mos keluvchi juftliklarni tanlay olish imkoniyatini ko‘rsatib bergan [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy faoliyat va huquqiy asoslar mavjud. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” O‘RQ-406 sonli Qonunda yoshlarning ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni hayotga tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga ham bevosita aloqador.

Talaba yoshlarni otalik va onalikka tayyorlash jarayonida psixologik mexanizmlar ularning ichki dunyosini, emotsional yetukligini, ijtimoiy xulq-atvorini va shaxsiy mas’uliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mexanizmlar yoshlarning kelajakda farzand tarbiyasida uchrashi mumkin bo‘lgan psixologik vaziyatlarga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi, ularni oila hayotiga moslashtiradi va shaxs sifatida yetuklikka olib boradi.

Talaba yoshlarni otalik va onalikka tayyorlashning psixologik asoslari

1. Emotsional yetuklik. Emotsional yetuklik — shaxsning hissiyotlarini anglay olishi, boshqara olishi va boshqalarning emotsiyalarini to‘g‘ri qabul qila bilishidir. Kelajak ota-onalarning emotsional barqarorligi oiladagi munosabatlarning muvozanatli bo‘lishini ta’minlaydi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, emotsional yetuklik ota-onalarning bolaga nisbatan mehr-muhabbat, sabr, to‘g‘ri tarbiya usullarini qo‘llashida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

2. Empatiya va muloqot madaniyati. Empatiya — boshqalarning his-kechinmalarini tushuna olish ko‘nikmasidir. Talaba yoshlar turli treninglar, rolli o‘yinlar, psixodrama mashg‘ulotlari orqali empatiyani rivojlantirishi mumkin. Kelajak ota-onalar uchun empatiya bolaga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni, uning ehtiyojlarini to‘g‘ri anglashni ta’minlaydi. Muloqot madaniyati esa oilaviy nizolarning oldini oladi. O‘z fikrini muloyim shaklda yetkazish, tinglash ko‘nikmasi, konstruktiv dialog qurish — barchasi psixologik tayyorgarlikning muhim elementi.

3. Mas’uliyat hissi. Mas’uliyat — ota-onalikning asosiy poydevoridir. Talaba yoshlarning qarorlarni ongli qabul qilishi, hayotiy maqsadlarini belgilashi va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishi — kelajakda samarali ota-onalik rolini bajarishga asos yaratadi.

4. O‘z-o‘zini anglash va shaxsiy qadriyatlar tizimi. O‘z-o‘zini anglash — shaxsning o‘z kuchli va zaif tomonlarini bilishi, hayotiy maqsadlarini tushunishi, qadriyatlarini shakllantirishi jarayonidir. Qadriyatlar tizimi shakllangan, o‘zini anglagan shaxs oilaviy hayotda tayanch nuqtani to‘g‘ri belgilay oladi.

ugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan yetukligi oilaviy hayotining muhim jihati sifatida belgilanadi. Yoshlarning yetukligi, ehtiyoji, psixologik tayyorgarligi va oilada erkak va ayol rollari, keyinchalik oilada otalik va onalik funksiyalarini bajarish qobiliyati rivojlantirib borishga oid psixologik tayyorgarlik kurslari ahamiyat kasb etadi . Mutaxassislar oila jipsligini ta’minlash, oilaviy ajrimlarning oldini

olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish hamda namunali ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlarni talab darajasida bajarib keldi. Shunday bo'lsada, keyingi oilada ajrimlarni ko'pligi, oila qurish masalalariga yoshlar jiddiy e'tibor qaratmasligi davom etib kelmoqda. Albatta, oiladagi ajrimlarning har xil sabablarini ko'ramiz. Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va buyum yig'adilar, sovchilik, qudachilik an'analarini qiladilar va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini ado etgan bo'lib, go'yoki, "yelkalaridan tog' ag'darilgandek" bo'ladi . Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa – qizlarini kelinlikka, o'g'illarini kuyovlikka tayyorlash yodlaridan chiqib qoladi. Tadqiqotlarning umumiy maqsadi ham oila qurish ostonasida turgan yoshlar va yosh oilalar hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga oqilona yechim topishlarida yordam berish hisoblanadi. Nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatligi, farzand tarbiyasi, oiladagi ma'naviyaxloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli o'quv kurslarni tashkil etishi masalalari ko'ndalang bo'lib turibdi.

Mas'uliyatli ota-onalik jamiyatda barkamol avlodni shakllantirishning muhim ijtimoiy-pedagogik omili hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati haqidagi qarashlar ota-onalik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ota-onaning ongli va uzoqni ko'zlab olib borilgan tarbiyaviy faoliyati bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ota-onaning mas'uliyatli munosabati bolaning aqliy, jismoniy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mas'uliyatli ota-onalik bolaning iste'dod va qiziqishlarini erta aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mustaqil hayotga tayyorlash jarayonini qamrab oladi. Aksincha, ota-onalik mas'uliyatining yetishmasligi bolalarda ijtimoiy moslashuv muammolari, bilim va kasbiy tayyorgarlikning sustligi bilan bog'liq holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, talabalarni ota-onalikka tayyorlash masalasi oliy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Talabalarda mas'uliyatli ota-onalikka oid bilim, qadriyat va ko'nikmalarni shakllantirish ularning kelgusidagi oilaviy hayotga ongli yondashuvini ta'minlaydi. Xususan, ota-onaning namunasi, kitobxonlik madaniyati va oilaviy muloqot muhitining tarbiyaviy ahamiyati haqidagi g'oyalar talabalarni ota-onalikka tayyorlashning nazariy asosini tashkil etadi.

Ota-onalikka tayyorlashda emotsional-intellektning rivojlantirilishi ham katta ahamiyatga ega. Talabaning o'z hissiyotlarini boshqarishi, bolalar emotsiyalarini tushunishi, empatiya ko'rsatishi va ijobiy muloqot olib borishi ota-onalikning zarur qismi hisoblanadi. Treninglar, psixologik mashg'ulotlar va guruhiy amaliyotlar bu ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Shuningdek, ijtimoiy o'rnak ko'rsatish mexanizmi orqali talabalarga namunaviy oilalar, namunali ota-onalar haqidagi videoroliklar, suhbatlar va uchrashuvlar taqdim etiladi. Bu jarayon kuzatib o'rganish imkoniyatini yaratib, yoshlarning ongida to'g'ri oilaviy model shakllanishiga yordam beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlarni otalik va onalikka tayyorlash tizimli, uzluksiz va integrativ yondashuvni talab etadigan jarayondir. Bu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy ishlarni kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar joriy etish, psixologik-pedagogik xizmatlarni rivojlantirish kelajak avlodning sog'lom ruhiy va ma'naviy kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 24-avgustdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" O'RQ-406-son Qonuni .

2.Akramova F.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim // 2015, №10. 45-52 b.

3.Niyozmetova M.I. YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGINI OSHIRISH MASALALARI. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar // 2024, №7. 336-340 b.

4.Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087

P. Zokirov. "Oila psixologiyasi". – Toshkent.